

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



ISSN: 3060-463X



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

MILLIY GVARDIYA TIZIMIDA HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI .....	10
<b>Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li</b>	
FOND BOZORLARIGA XORIJIY KAPITALNI JALB QILISH: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI .....	17
<b>Yusupova Jamila Karamatdinovna</b>	
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARINING TASHKLIY-HUQUQIY VA ILMIY NAZARIY MASALALARI .....	21
<b>Rajaboyev Shahboz Shodi o'g'li</b>	
PUL MABLAG'LARI HISOBINI MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA O'TKAZISHNING DOLZARB MASALALARI .....	26
<b>Eshonqulov Akmal Qudratovich</b>	
XORAZM VILOYATINING IJOBIY IMIJINI OSHIRISHDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH .....	34
<b>Ibadullayev Dilshad Ibragimovich</b>	
OROL BO'YI MINTAQASIDA QISHLOQ XO'JALIGI VA TURIZMNI YASHIL MOLIYALASHTIRISH VA INVESTITSIYA MEXANIZMLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI .....	40
<b>Akramova Feruza</b>	
ATMOSFERA HAVOSI MONITORINGIDA IOT SENSORLARI O'LCHASH NATIJALARINING METROLOGIK ISHONCHLILIGINI BAHOLASH VA OSHIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH .....	52
<b>Sobirov Anvarjon, Melibayev Maxmudjan</b>	
BANK VA KREDIT MUASSASALARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TREND MODELLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISH VA PROGNOZLASH USULLARI .....	59
<b>Nazarov Elbek</b>	
PHYSALIS ALKEKENG I O'SIMLIGIDAN FLAVONOIDLARNI AJRATIB OLIHNING BIOTEKNOLOGIK USULLARI VA JARAYON PARAMETRLARINI OPTIMALLASHTIRISH .....	66
<b>Xidirova Saboxat Baxrillayevna</b>	
ЧИСЛЕННАЯ ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЗОН КОНЦЕНТРАЦИИ НАПРЯЖЕНИЙ В МАССИВЕ ГОРНЫХ ПОРОД ПРИ ВЛИЯНИИ ПРОЦЕССОВ ДОБЫЧИ В УСЛОВИЯХ РУДНИКА «КЫЗЫЛ-АЛМА» .....	70
<b>Салямова Клара, Меликулов Абдусаттар, Уралбаев Абдукахар, Бакиров Гайрат, Зухритдинов Давронбек</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI, IT MUTAXASSISLARINING YETISHMASLIGI VA ISHSIZLIKNING TA'LIM SIFATI HAMDA BARQARORLIGIGA TA'SIRI: ILG'OR XORIY TAJRIBASI VA UNING O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA TATBIQ ETILISHI .....	77
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	82
<b>Normamatov A. A.</b>	
IPAKCHILIK KLASTERLARI UCHUN INVESTITSION BOSHQARUV MODELINI ASOSLASH .....	87
<b>Elboyeva Shaxzoda Olimovna</b>	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SAMARADORLIGINI EKONOMETRIK USULLARDA TAHLIL QILISH METODOLOGIYASI .....	94
<b>Nazarov Nazar G'ulom o'g'li</b>	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI BOSHQARUV FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	101
<b>Usmanov Sarvar Nigmatovich</b>	



РАЗРАБОТКА АДАПТИВНОГО МНОГОЗОНАЛЬНОГО АЛГОРИТМА УПРАВЛЕНИЯ FUZZY-PID ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ РАВНОМЕРНОГО РАСПРЕДЕЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТИ В ПРОЦЕССЕ УВЛАЖНЕНИЯ ЗЕРНА.....	107
<b>Камариддинов Шохрух Акмал угли</b>	
SANOAT KLASTERLARIDA “SANOAT 4.0” TECHNOLOGIYALARINI JORIY ETISH VA HAMKORLIK MODELLARI .....	113
<b>Mamadaliyev Anaxxon Ziyodillayevich</b>	
SAND-PARTICLE-INDUCED LEADING-EDGE EROSION AND ITS IMPACT ON WIND TURBINE BLADES: A REVIEW .....	119
<b>Normamatov A. A.</b>	
YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	124
<b>Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li</b>	
HUDUDIY TURIZMDA XALQARO ESG MEZONLARINI MILLIY SHAROITGA MOSLASHTIRISH YO'NALISHLARI .....	128
<b>Maxmudova Nodira Uktamovna</b>	
EVALUATION OF TECHNOLOGICAL LOSSES OF HYDROCARBONS OF LIGHT FRACTIONS IN THE PROCESSES OF COLLECTION AND PRIMARY TREATMENT AT THE MUBARAK FIELDS OF OGPD.....	134
<b>Norqulov Shohbozbek Samandar ugli</b>	
АНАЛИЗ СИСТЕМЫ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ УЗБЕКИСТАНА.....	140
<b>Жумадуллаева Дурдона Шухрат кизи</b>	
XUSUSIY TA'LIM SOHASIDA MALAKALI KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TA'LIMNING SIFAT VA USTUVORLIGIGA TA'SIRI VA UNI TA'MINLASH YO'LLARI .....	145
<b>Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li</b>	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	150
<b>Kilichov Nazar Bafoyevich</b>	
HUDUDLARDA TURIZM XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING AHOLI DAROMADLARI VA BANDLIGIGA TA'SIRINING TAHLILI .....	157
<b>Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li</b>	
GAZNI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA BARQAROR RIVOJLANISH HOLATINING IQTISODIY TAHLILI VA BAHOLASH .....	164
<b>Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol qizi</b>	
COMPETITION IN THE INFORMATION MARKET: MONOPOLY TRENDS AND THE DIGITAL PLATFORM ECONOMY.....	169
<b>Mo'ydinjonova Durdonaxon, Ismanov Ibrohim</b>	
BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI ...	174
<b>Ganiyev Botir Baxtiyorovich</b>	
MAGNIY VA KALSIY ELEMENTLARINI O'RGATISHDA O'QUVCHILARDA 4K KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH .....	178
<b>Esnazarov Abdiganij Jamalatdinovich</b>	



# BOZOR INFRATUZILMASINING IQTISODIY MAZMUNI VA KICHIK BIZNES RIVOJIDAGI AHAMIYATI

**Ganiyev Botir Baxtiyorovich**

Namangan davlat texnika universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Bozor infratuzilmasining iqtisodiy mazmuni hamda uning kichik biznes subyektlari rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilingan. Bozor infratuzilmasining asosiy tarkibiy elementlari, jumladan, moliyaviy, axborot, konsalting, innovatsion va logistika xizmatlarining kichik biznes faoliyatiga ta'siri ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan bozor infratuzilmasining tadbirkorlik muhitini takomillashtirish, raqobatbardoshlikni oshirish va kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi o'rni asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** bozor infratuzilmasi, kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari, moliyaviy xizmatlar, axborot xizmatlari, konsalting xizmatlari, innovatsiya, logistika, raqobatbardoshlik, iqtisodiy rivojlanish.

**Аннотация.** Проанализированы экономическое содержание рыночной инфраструктуры и её значение в развитии субъектов малого бизнеса. На основе научных подходов раскрыты основные элементы рыночной инфраструктуры, включая финансовые, информационные, консалтинговые, инновационные и логистические услуги, а также их влияние на деятельность субъектов малого бизнеса. Обоснована роль развитой рыночной инфраструктуры в совершенствовании предпринимательской среды, повышении конкурентоспособности и обеспечении устойчивого развития субъектов малого бизнеса.

**Ключевые слова:** рыночная инфраструктура, малый бизнес, субъекты предпринимательства, финансовые услуги, информационные услуги, консалтинговые услуги, инновации, логистика, конкурентоспособность, экономическое развитие.

**Abstract.** The economic content of market infrastructure and its significance for the development of small business entities are analyzed. The main components of market infrastructure, including financial, information, consulting, innovation, and logistics services, together with their impact on small business activities, are examined based on scientific approaches. The role of a well-developed market infrastructure in improving the entrepreneurial environment, enhancing competitiveness, and ensuring the sustainable development of small business entities is also substantiated.

**Keywords:** market infrastructure, small business, business entities, financial services, information services, consulting services, innovation, logistics, competitiveness, economic development.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyotining samarali faoliyat yuritishi nafaqat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi erkin munosabatlarga, balki ushbu munosabatlarni ta'minlovchi mukammal infratuzilma tizimining shakllanganligiga ham bog'liq. Bozor infratuzilmasi iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi bo'lib, bozor subyektlarining samarali faoliyati uchun zarur bo'lgan tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, axborot va xizmat ko'rsatish mexanizmlari majmuini ifodalaydi [2; 11]. Uning asosiy vazifasi bozor ishtirokchilari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yengillashtirish, resurslar harakatini tezlashtirish hamda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay muhit yaratishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor infratuzilmasining iqtisodiy mazmuni va uning tadbirkorlik faoliyatidagi o'rni iqtisodiy nazariya vakillari tomonidan turli nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. A. Marshall bozor mexanizmining samarali ishlashi ishlab chiqarish, ayirboshlash va xizmat ko'rsatish tizimlarining o'zaro uyg'un rivojlanishiga bog'liqligini asoslab bergan. D. Nort esa bozor infratuzilmasini institutsional muhitning tarkibiy qismi sifatida baholab, iqtisodiy institutlar va infratuzilma elementlarining tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini yoritgan. O.A. Aripov bozor infratuzilmasining kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash va tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashdagi o'rnini ilmiy jihatdan asoslab bergan [5; 6; 8; 11].

Kichik biznes subyektlari faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy, axborot, marketing va boshqaruv



infratuzilmalarining ahamiyati ko'plab tadqiqotlarda alohida e'tirof etilgan. A. Abdullayev va B. Karimov kichik biznesning samarali faoliyat yuritishi bozor infratuzilmasi rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqligini qayd etganlar. S.S. G'ulomov tadbirkorlikni rivojlantirishda bozor xizmatlari, kredit tizimi va axborot infratuzilmasining iqtisodiy ahamiyatini yoritgan. F. Kotler va K. Keller esa marketing infratuzilmasining korxonalarining bozor imkoniyatlarini kengaytirish, raqobatbardoshligini oshirish hamda iste'molchilar ehtiyojini qondirishdagi rolini ilmiy jihatdan asoslab berganlar [3; 9; 19].

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda bozor infratuzilmasi iqtisodiy o'sish va tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. P.F. Drucker innovatsion infratuzilmaning tadbirkorlik faolligini rag'batlantirishdagi o'rnini yoritgan bo'lsa, M.E. Porter raqobat ustunligini shakllantirishda rivojlangan infratuzilma muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan. OECD hamda World Bank hisobotlarida kichik biznes subyektlarining moliyaviy resurslarga, konsalting xizmatlariga va zamonaviy infratuzilma obyektlariga erkin kirish imkoniyatlari ularning barqaror rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur ilmiy qarashlar bozor infratuzilmasining kichik biznes rivojidagi iqtisodiy ahamiyatini tadqiq etish uchun mustahkam nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [13; 15; 17; 18].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI


Tadqiqotda bozor infratuzilmasining iqtisodiy mazmuni hamda uning kichik biznes subyektlari rivojlanishidagi ahamiyatini o'rganishda tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini bozor iqtisodiyoti, tadbirkorlik faoliyati va institutsional rivojlanish nazariyalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etdi. Bozor infratuzilmasining tarkibiy elementlari va ularning kichik biznes subyektlari faoliyatiga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinib, kichik biznes rivojini ta'minlashda infratuzilma xizmatlarining ahamiyati asoslandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy adabiyotlarda «**bozor infratuzilmasi**» tushunchasiga nisbatan turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Ayrim iqtisodchilar uni tovar va xizmatlar harakatini ta'minlovchi tashkilotlar tizimi sifatida talqin qilsalar, boshqa tadqiqotchilar bozor infratuzilmasini iqtisodiy munosabatlarni samarali tashkil etishga xizmat qiluvchi institutlar va xizmatlar majmui sifatida baholaydilar [2; 4]. Ushbu yondashuvlarni umumlashtirgan holda, bozor infratuzilmasini bozor subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi, ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi va bozor mexanizmlarining uzluksiz ishlashini ta'minlovchi institutsional hamda tashkiliy elementlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin. Institutsional yondashuv nuqtayi nazaridan bozor infratuzilmasi iqtisodiy subyektlar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi qoidalar va tashkilotlar tizimi sifatida qaraladi [2].

Bozor infratuzilmasining shakllanishi va rivojlanishi iqtisodiy o'sish, raqobat muhitini kuchaytirish hamda tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xususan, innovatsiyalar, investitsiyalar va tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma elementlari iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi [1; 7].

Bozor infratuzilmasining tarkibi keng qamrovli bo'lib, u bir qator funksional yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Xususan, moliyaviy infratuzilma (banklar, kredit tashkilotlari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya institutlari), axborot infratuzilmasi (axborot-konsalting markazlari, raqamli platformalar), ishlab chiqarish va logistika infratuzilmasi, innovatsion infratuzilma (texnologik parklar, biznes-inkubatorlar), shuningdek, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlovchi xizmatlar tizimi bozor infratuzilmasining muhim elementlari hisoblanadi [11; 18]. Shuningdek, bozor infratuzilmasi elementlari iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillari sifatida namoyon bo'ladi (1-rasm).



1-rasm. Bozor infratuzilmasining tarkibi<sup>1</sup>

Kichik biznes subyektlari uchun bozor infratuzilmasining ahamiyati, avvalo, ularning cheklangan resurslar sharoitida faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Moliyaviy xizmatlar, kredit resurslari va investitsiya mexanizmlarining mavjudligi kichik korxonalarining ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirish hamda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi [10; 12]. Yirik korxonalardan farqli ravishda kichik biznes subyektlari ko'p hollarda moliyaviy resurslar, zamonaviy texnologiyalar, marketing imkoniyatlari va boshqaruv salohiyati cheklangan holda faoliyat olib boradi. Shu sababli ular uchun tashqi xizmat ko'rsatish tizimi, ya'ni samarali bozor infratuzilmasining mavjudligi raqobatbardoshlikni ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligi kichik biznes subyektlarining investitsion imkoniyatlarini kengaytiradi. Bank kreditlari, mikromoliyalash xizmatlari, lizing va boshqa moliyaviy vositalar tadbirkorlik subyektlariga ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va faoliyatini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, moliyaviy xizmatlarning ochiqqligi va qulayligi kichik biznes subyektlarining bozorda barqaror ishtirok etishini ta'minlaydi.

Axborot va konsalting infratuzilmasi ham kichik biznes rivojida muhim o'rin tutadi. Chunki bunday axborot va konsalting infratuzilmasi kichik biznes subyektlarining bozor o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Bozor kon'yunkturasi, qonunchilikdagi o'zgarishlar, soliq siyosati, eksport imkoniyatlari va zamonaviy boshqaruv usullari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lish tadbirkorlarga samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi [3; 11]. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot platformalari va elektron xizmatlarning rivojlanishi kichik biznes subyektlarining bozor imkoniyatlaridan samarali foydalanishini ta'minlaydi.

Innovatsion infratuzilma esa kichik biznes subyektlarining texnologik rivojlanishi, yangi mahsulotlar yaratish va raqobat ustunligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiyalarni iqtisodiy faoliyatga joriy etish tadbirkorlik subyektlarining bozordagi ustunligini ta'minlab, iqtisodiy o'sishning muhim manbaiga aylanadi [1; 7]. Biznes-inkubatorlar, texnologik markazlar va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik mexanizmlari yangi g'oyalarni amaliyotga joriy etish, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish hamda mehnat unumdorligini oshirish imkonini yaratadi.

Bozor infratuzilmasi kichik biznes subyektlarining nafaqat iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki ularning bozor o'zgarishlariga moslashuvchanligini ham kuchaytiradi. Xususan, rivojlangan infratuzilma tadbirkorlik subyektlariga bozor talabini tez anglash, resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va yangi bozorlarga chiqish imkonini beradi [8; 9].

Hududiy jihatdan olganda, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi kichik biznes subyektlarining faolligi va hudud iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini belgilaydi. Ayniqsa, Namangan viloyati kabi sanoat, xizmat ko'rsatish va kichik ishlab chiqarish sohalari rivojlanayotgan hududlarda bozor infratuzilmasini samarali tashkil etish kichik biznes subyektlarining barqaror o'sishini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, bozor infratuzilmasi kichik biznes subyektlari faoliyatini ta'minlovchi oddiy xizmatlar tizimi emas, balki tadbirkorlik muhitini shakllantiruvchi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlovchi hamda iqtisodiy rivojlanish jarayonini rag'batlantiruvchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi. Shu bois kichik biznes subyektlarini rivojlantirishda bozor infratuzilmasini takomillashtirish hududiy iqtisodiy siyosatning ustuvor

1 Muallif ishlanmasi.



yoʻnalishlaridan biri sifatida qaralishi maqsadga muvofiq.

**Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:**

1. Oʻzbekiston Respublikasining 2000-yil 25-maydagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari toʻgʻrisida»gi 69-II-son Qonuni: <https://www.lex.uz/ru/docs/-31846?ONDATE=24.06.2003&ONDATE2=24.03.2006&action=compare>
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «**2022–2026-yillarga** moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida»gi PF-60-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
3. Abdullayev A., Karimov B. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 280 b.
4. Aripov O.A. Kichik biznes va tadbirkorlik: darslik (lotin yozuvida). – Namangan: «Mashrab» nashriyoti, 2025. – 356 b.
5. Aripov O.A. Oʻzbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish: monografiya. – T.: Fan, 2012. – 272 b.
6. Aripov O.A. Oʻzbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish: monografiya. – T.: «Lesson Press», 2021. – 225 b.
7. **Шумпетер Й. Теория экономического развития. Исследование предпринимательской прибыли, капитала, кредита, процента и цикла конъюнктуры.** – Москва: Прогресс, 1982. – 455 с.
8. **Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики.** – Москва: Фонд экономической книги «Начала», 1997. – 180 с.
9. **Котлер Ф., Келлер К. Маркетинг-менеджмент.** – Санкт-Петербург: Питер, 2012. – 816 с.
10. **Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента.** – Москва: Вильямс, 2017. – 672 с.
11. **Маршалл А. Принципы экономической науки.** – Москва: Прогресс, 1993. – 594 с.
12. **Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег.** – Москва: Гелиос АРВ, 2012. – 352 с.
13. Drucker P.F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985. – 277 p.
14. Kirzner I.M. Competition and Entrepreneurship. – Chicago: University of Chicago Press, 1973. – 246 p.
15. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990. – 855 p.
16. Acs Z.J., Audretsch D.B. Small Firms and Entrepreneurship: An East-West Perspective. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 432 p.
17. OECD. SME Policy Index: Eastern Partner Countries 2020. – Paris: OECD Publishing, 2020.
18. World Bank. Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance: Improving SMEs' Access to Finance and Finding Innovative Solutions to Unlock Sources of Capital. – Washington, DC: World Bank Group, 2015.
19. Gʻulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Toshkent: Sharq, 2002. – 365 b.
20. Razzoqov A., Toshmatov Sh., Oʻrmonov N. Iqtisodiy taʼlimotlar tarixi. – Toshkent: Moliya, 2002. – 320 b.
21. **Кошелев В.А. Инфраструктура рынка и развитие предпринимательства. // Экономические науки.** – Москва, 2018. – № 5. – С. 25–31.
22. **Ларионов И.К. Инфраструктурное обеспечение предпринимательской деятельности в условиях рыночной экономики. // Вопросы экономики.** – Москва, 2017. – № 8. – С. 112–118.
23. Oʻzbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati toʻgʻrisida statistik maʼlumotlar. – Toshkent, 2024.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## **2026. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)